

# QO'QON SHAHRIDAGI O'RDA MAYDONIDA "FARG'ONA-VODIY GAVHARI. INVESTITSIYA VA TURIZM ISTIQBOLLARI" MAVZUSIDAGI XALQARO FORUMI BO'LIB O'TDI

Unda Quvayt, Turkiya, Vengriya, Xitoy, Janubiy Koreya, Qatar, BAA kabi o'ttizdan ziyod davlatlardan 200 ga yaqin kompaniyalar rahbarlari, ishbilarmonlar, sayyohlik tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov barcha mehmonlarni qutlab, turizm va investitsiya istiqbollari va imkoniyatlarini aytib o'tdi.

Ikki kun davom etgan forum Farg'ona viloyatini iqtisodiy-investitsiyaviy salohiyatini xalqaro miqyosda tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Forum xorijiy davlatlar bilan muloqot o'rnatish va o'zaro manfaat keltirishi mumkin bo'lган qo'shma istiqbolli loyihalarni aniqlash uchun platforma yaratish va rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadbir doirasida B2B muzokaralari bo'lib o'tdi, unda tadbirkorlar ko'plab yangi, foydali aloqalarni o'rnatishga, yangi loyihalarni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlarini muhokama qilishga muvaffaq bo'lishdi.

Forum yakunlari bo'yicha investitsiya, farmatsevtika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, logistika markazini tashkil etish, turizm, IT-xizmatlari ko'rsatish, elekrotexnika va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda bitim, memorandum imzolandi.

Forumda O'zbekistonning investitsiyaviy salohiyati taqdimot qilindi.

Shuningdek, tadbirda Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinosasi Akram Aliyev, Qozog'iston milliy turizm kompaniyasi rahbari Kairat Sadvakkosov, D-8 iqtisodiy tashkiloti bosh kotibi Isaika Abdulqodir Imom, quvaytlik investor Ali Mohamed va boshqalar O'zbekiston investitsiya kiritish uchun eng qulay mamlakat ekanligini ta'kidlab, Farg'onada tashkil etilgan forumni yuqori baholadilar.

Tadbirda viloyat hokimligi, Quvasoy shahri, Quva, Qo'shstepta tumani bilan forumda ishtirok etgan xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik memorandumlari imzolangani ma'lum qilindi.

Qo'qon shahrida o'tkazilgan xalqaro forum doirasida 300 mln. dollarlik shartnomalar tuzildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-10-19 01:01:06